

## MILLIY INVESTITSIYA SIYOSATINI SAMARALI AMALGA OSHIRISH UCHUN ICHKI ZAXIRALARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI

*Nematulloyev Suxrob Sobirovich –  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
“Bank ishi” kafedrasida dotsenti*

*Nusratov Azizbek San’atillayevich –  
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti magistri*

### Аннотация

Ushbu maqolada mamlakat ichidagi investitsiya siyosatini muvaffaqiyatli amalga oshirishning muhim tarkibiy qismi sifatida ichki zaxiralardan strategik foydalanish o'rganildi. Hukumat yoki markaziy, bank tasarrufidagi to'plangan moliyaviy aktivlardan tashkil topgan ichki zaxiralar iqtisodiyotni barqarorlashtirish, o'sishni rag'batlantirish va tashqi zarbalar bilan bog'liq risklarni yumshatishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

**Калит so‘zlar:** investitsion siyosat, ichki zaxira, iqtisodiy o‘shish, tadbirkorlik, investitsion loyihalar

### Annotation

This article examines the strategic use of internal reserves as an important component of the successful implementation of investment policy within the country. Domestic reserves, consisting of accumulated financial assets owned by the government or central bank, play a critical role in stabilizing the economy, stimulating growth and mitigating risks associated with external shocks.

**Key words:** investment policy, reserves, economic growth, entrepreneurship, investment projects.

### Аннотация

В данной статье рассматривается стратегическое использование внутренних резервов как важная составляющая успешной реализации инвестиционной политики внутри страны. Внутренние резервы, состоящие из накопленных финансовых активов, принадлежащих правительству или центральному банку, играют решающую роль в стабилизации экономики, стимулировании роста и смягчении рисков, связанных с внешними шоками.

**Ключевые слова:** инвестиционная политика, резервы, экономический рост, предпринимательство, инвестиционные проекты.

**Kirish.** Investitsiya siyosati mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun bir bir necha ko'rsatkichlarga e'tibor qaratish kerak. Mamlakatlar bu muqobil

ko'rsatishlar orqali innovatsiyalarni oshirish va tadbirkorlikni rag'batlantirish imkoniyatlarini kengaytirishlari mumkin.

Birinchi o'rinda, mamlakatlar o'zlarining investitsiya yo'nalishlarini aniqlash va unga rioya etishlari lozim. Bu, mamlakatning asosiy iqtisodiy sohalari, unikal xususiyatlari, tadbirkorlik imkoniyatlari va takliflari bo'yicha o'zining strategiyasini belgilashni talab qiladi.

Ikkinchisi, investitsiya siyosati mamlakatning iqtisodiy barqarorlik va investorlarning qiziqtirishini jalb etishga qaratilishi kerak. Sifatli huquqiy himoya, soliq siyosati va moliyaviy ta'minot sharoitlari investitsiya qiluvchilarni jalb qilishda asosiy ahamiyatga ega.

Uchinchidan, tadbirkorlarni rivojlantirish va ularning innovatsion faoliyatini rag'batlantirish muhimdir. Investitsiya siyosati o'z ichiga innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash, yangiliklarni rivojlantirish va islohotlarni kengaytirish imkoniyatlarini o'z ichiga oladi.

To'rtinchi navbatda, investitsiya siyosati tadbirkorlar va investitsiya qilish sohasidagi rivojlanishni oshirish uchun to'g'ri yo'nalishni belgilashga qaratilishi kerak. Bu mamlakatning asosiy sohasiga, sanoat, infrastruktura, agrar soha yoki xizmatlar sohasiga investitsiyalarni jalb etishni osonlashtiradi[1].

Oxirgi qadamda, monitoring ya'ni investitsiya siyosati natijalari kuzatish va baholash muhim ahamiyatga ega. Ushbu bosqich investitsiyalarining maqsadga mos kelishi, ularning o'z vazifalarini bajarishi va mamlakatning rivojlanish yo'lidagi roli haqida ma'lumot beradi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotida investitsiya siyosatini amalga oshirishda ichki zaxiralar muhim rol o'ynaydi. Ichki zaxiralardan foydalanish turli vaziyatlarda qo'llanilishi mumkin, lekin umuman olganda, u investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun kompaniyaning mavjud resurslaridan oqilona foydalanishni nazarda tutadi. Bu zaxiralar, mamlakatning iqtisodiyotidagi holatini, siyosiy muhitini va ijtimoiy aloqalarini o'z ichiga oladi[2].

Quyidagi ichki zaxiralar investitsiya siyosatini amalga oshirishda muhim rolini o'ynaydi:

- **Iqtisodiy muhit va mamlakatning taraqqiyot darajasi.** Mamlakatning iqtisodiy muhit tushunchalari, moliyaviy barqarorlik, inflatsiya darajasi, ishlab chiqarish va iste'mol sanoati kabi omillar investitsiya siyosatini shakllantirishda asosiy rolni o'ynaydi.


- **Huquqiy va siyosiy tartib.** Siyosiy tartib investitsiya siyosatini amalga oshirishda juda muhimdir. Investitsiya qiluvchilar uchun mustahkam huquqiy himoya, soliq to'lovini osonlashtirish, moliyaviy va siyosiy risklarni kamaytirish, shuningdek, investitsiya qiluvchilarning mulkiy huquqlarini muhofaza qilish muhim ahamiyatga ega.

- **Boshqa mamlakatlar bilan diplomatik aloqalar.** Xalqaro investorlarni jalb qilishda boshqa mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlar juda muhimdir. Mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan yaxshi munosabatlari va o'zaro ishonchli aloqalari, investitsiya siyosatini osonlashtiradi va investorlarning ishonchini oshiradi.

- **Mamlakatning iqtisodiy va siyosiy maqsadlari.** Investitsiya siyosatining shakllantirilishi mamlakatning iqtisodiy va siyosiy maqsadlariga qarab tuziladi. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanishining qanday shakllantirilishi, ularning strategiyalarini qanday belgilashlari, aynan qaysi soha yoki xizmatlar sohasiga qanday investitsiyalarni jalb etishlari kabi faktorlar juda muhimdir.

- **Xalqaro va ichki siyosiy ommaviy axborot olish.** Mamlakatning ichki va xalqaro siyosiy tizimi investitsiya siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Siyosiy yo'nalishlar, iqtisodiy ko'rsatkichlar, siyosiy partnyorlar bilan munosabatlar, shuningdek, ommaviy axborot olish tizimining ishtirokchilari bilan munosabatlar, investitsiya siyosatining shakllantirish va amalga oshirish uchun muhimdir[3].

Investitsion siyosatni amalga oshirishda ichki zaxiralardan foydalanishning bir necha usullari mavjud:



**1-rasm.** Investitsion siyosatda ichki zaxiralardan foydalanishning usullari<sup>1</sup>

Investitsion siyosatni amalga oshirishda ichki zaxiralardan foydalanish, ayniqsa, iqtisodiy beqarorlik davrida yoki tashqi moliyalashtirish manbalaridan foydalanish cheklangan davrda kompaniyalar yoki mamlakat o'zining strategik rivojlanish va o'sish maqsadlariga erishishning samarali usuli bo'lishi mumkin. Investitsion siyosatda ichki zaxiralardan foydalanish strategik strategiya bo'lib, unda kompaniyalar va tomonlar turli investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun o'z

<sup>1</sup> Muallif ishlanmasi

resurslaridan foydalanadilar. Investitsion siyosatda ichki zaxiralardan foydalanishning ba'zi usullari[4]:

**Yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish:** Kompaniya chet elda yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish uchun ichki zaxiralardan foydalanishi mumkin. Bunga tadqiqot va ishlanmalar, marketing kampaniyalari va ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish kiradi.

**Ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish:** Kompaniyalar o'zlarining ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish yoki yangi zavodlar qurish uchun ichki zaxiralarni sarflashlari mumkin. Bu ishlab chiqarish quvvatini oshirish va mahsulotlar bozorini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

**Uskunalarni modernizatsiya qilish va yangilash:** Uskunalarni modernizatsiya qilish va yangilash uchun ichki zaxiralardan foydalanish kompaniyalarga ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini yaxshilashga yordam beradi.

**Raqobatchilarni yoki tegishli sohalardagi kompaniyalarni sotib olish:** Kompaniyalar o'z sanoati yoki tegishli sohalardagi boshqa kompaniyalarni sotib olish uchun ichki zaxiralardan foydalanishlari mumkin. Bu korxonalariga bozor ulushini oshirish, mahsulot turlarini kengaytirish va raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

**Innovatsiyalar va texnologiyalarga sarmoya kiritish:** Ichki zaxiralar innovatsion texnologiyalar va tadqiqotlarga sarmoya kiritish uchun ishlatilishi mumkin. Bu kompaniyalarga o'z sohasida ilg'or bo'lib qolishga va raqobatdosh ustunlikni yaratishga yordam beradi[5].

**Xulosa va takliflar.** Investitsion siyosatda ichki zaxiralardan foydalanish kompaniyalarga strategik qarorlar qabul qilishda ko'proq moslashuvchanlik va mustaqillikni ta'minlaydi, shuningdek, ularning resurslari va kapitalini samarali boshqarish imkonini beradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Нешитой А.С. Инвестиции. Учебник. 4-е изд. – М.: Дашков и К., 2006
2. Вахобов А.В., Хажибакйев Ш.Х., Муминов Н.Г. Хорийй investitsiyalar. O'quv qo'llanma. – T.: Moliya, 2010
3. “Mamlakat iqtisodiy o'sishini ta'minlashda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning ustuvor yo'llari” maqola Suxrob Rustamovich Allayarov TMI
4. Maxmudov N.M., Avazov N.R. “O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda investitsiyalardan samarali foydalanish yo'llari”: Ilmiy-ommabop risola. – T.: TDIU, 2019y. - 104 b.